

SHERMUHAMMAD MUNIS VA UNING XORAZM TARIXNAVISLIK**MAKTABIDA TUTGAN O'RNI****Durdona Mashrabaliyeva**

NamDU, Tarix yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Xorazm tarixnavislik maktabining yirik vakili Shermuhammad Munis hayoti va faoliyati, ilmiy merosi haqida ma'lumot berilgan. Munisning tarixnavislik faniga qo'shgan hissasi, asarlari, xususan, "Firdavs ul-iqbol" asari, uning ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: Xiva xonligi, Shermuhammad Munis, Ogahiy, "Savodi ta'lim", "Munis ul-ushshoq", "Manga", "Firdavs-ul iqbol", "Baxt-saodat bog'i", "Shajarayi turk", "Shajarayi tarokima", "Oshiqlar do'sti".

Ilm-fansiz hayotni taraqqiy ettirib bo'lmaydi, doimo yangilikka intilish, bilimni mustahkamlab borish lozim. Ilm olgan insonni farishtalar gunohini kechirishini Yaratgandan so'rar ekan. Ilm olish ibodatga teng, ilm berish esa undandan ulug', ilm sohiblari esa ikki dunyoda ham azizdirlar, bitta olim o'nta mo'mindan afzal.

Tarixni buyuk o'qituvchi deymiz u bizga o'tgan voqealarni o'rgatadi. Ulardan yaxshi xulosa olishimizga ko'maklashadi.

XVI – XIX asr o'rtalarida O'rta Osiyoning yirik davlatlaridan biri – Xiva xonligi o'zining tarixnavislik maktabi bilan qo'shni xonliklardan ajralib turadi. Ayniqsa, Xiva xonligida o'ziga xos tarixnavislik maktabi mavjud bo'lib, bu maktab Abulg'ozi Bahodirxon, Shermuhammad Munis, Ogahiy, Bayoniy kabi yirik tarixchilarni yetishtirib berdi. Xorazm tarixnavislik maktabining yirik vakillaridan biri – Shermuhammad Munis hisoblanadi.

XIX asr boshlarida Xiva xonligi tarixida o'chmas iz qoldirgan buyuk insonlardan biri – Shermuhammad ibn Avazbiy mirob o'g'li Munis edi. Munis 1778-yilda Xiva shahri yaqinidagi Qiyot qishlog'ida Avaz mirob oilasida tavallud topgan. Avaz mirob Xiva xonligida bosh mirob va kemalar noziri edi. Adib: "Men, Munis, Xivada yashovchi yuz toifasidan bo'lgan Amir Eshimbiyning avlodidandirman", deb yozgandi [1. – B. 237.].

Munisning bolalik va yoshlik yillari Qiyot qishlog'ida o'tdi va ulg'aygach, Xivadagi madrasalardan birida tahsil ko'rdi va ustozi Sayyid Eshonxo'jadan saboq oldi. Arab, fors, turkiy xalqlar adabiyoti, shuningdek, klassik muzika hamda tarix fanini qunt bilan o'rgandi. U mohir hattot bo'lib, kufiy, rayhoniy, xatti shikasta kabi xatlarni yaxshi bilgan. Munisning otasi Avazbiy 1800-yilda vafot etgach, xon 22 yashar Shermuhammadni saroyga taklif qiladi, uni qazuv, qachuv (suv xo'jaligi) ishlari bo'yicha kotib va 1812- yilda amakisi Erniyozbek mirob vafot etgach, xon Munisni mamlakatni bosh mirobi qilib tayinlaydi.

She'riyat olamida uning taxallusi "Munis" bo'lib, lug'aviy ma'nosi "ulfat", "hamdam", "do'st" demakdir. Shermuhammad Munis o'z esdaliklarida, Nizomiydan tortib, to o'zi yashagan davrga qadar o'tgan so'z san'atkorlarining ijodi bilan oshno bo'lgan shoir, o'zining

“Manga” radifli g’azalida Nizomiy, Xisrav Dehlaviy ijodidan naqadar lazzatlanganligini, Hofiz Sheroziy, Lutfiy asarlari orqali she’riyat bo’stoniga qadam qo’yganini, Firdavsiyning ijod bog’ida orom olganini, Anvariyan nur emib, Sa’diy va Jomiydan cheksiz bahramand bo’lganini, Bedilning ajoyib so’zlaridan fayz topib, nihoyat buyuk Alisher Navoiy va Muhammad Fuzuliy o’ziga homiy bilganini zo’r mamnuniyat bilan qayd qiladi [2. – B. 375.]. Munis tez orada el-yurt hamda Xiva hukmdori Avaz inoq nazariga tushadi. 1804-yilda shoir alifbo sifatida foydalanish uchun “Savodi ta’lim” kitobini yozib tugatadi. Yana shu yili ijodi namunalarini “Munis ul-ushshoq” (“Oshiqlar do’shti”, 1804-yilda) degan nom bilan to’plab, uni 1813-yilda 16 892 misradan iborat katta devonga aylantiradi. Ushbu asarda shoirning g’azallari, muxammaslari, ruboiylari, mustazodlari, tuyuqlari, to’rtlik va maxsus ikkilik baytlari mavjud bo’lib, bulardan tashqari devon oxiriga shoirning 1804-yilda nazm bilan yozib tamomlangan kalligrafiyaga oid “Savodi ta’lim” nomli asari ham ilova qilingan. Ushbu kichik risolada chiroyli xat yozish usullari bayon qilingan. Risola ikki qismdan iborat. Asarning birinchi qismida xat mashq qilishga tayyorgarlik va bu ish uchun kerakli asboblarni to’g’risida so’z yuritiladi. Ikkinchi qismida esa, xat mashqi va uning usuli haqida amaliy yo’l bilan ta’lim beriladi. 1814 – 1815-yillarda o’z adabiy merosini hajman to’liq aks ettirgan mukammal devon yaratadi [3. – B.377.].

O’ttiz yildan ortiq ijod qilgan adibning ota-bobolaridan meros bo’lib kelayotgan sulolaviy kasbi miroblik hisoblangan. Uni 1806-yilda Muhammad Rahim I (1806 – 1825) taxtni egallagach xonlik bosh mirobi qilib taryinlaydi [4. – B. 233.].

Xiva xoni Eltuzarxon (1804-1806) Munisga Xorazm tarixini bitishini topshirdi. Munis bu asarga “Firdavs-ul iqbol” (“Baxt bog’i” yoki “Baxt-saodat bog’i”) deb nom qo’ydi. Asar Munis va jiyani Ogahiy qalamiga mansub bo’lib, afsonaviy rivoyatdan boshlanib, 1825-yilgacha Xorazmda sodir bo’lgan tarixiy voqealarni o’z ichiga oladi. Munis bu asarni yozib tugata olmagan, u qadim zamonlardan boshlab, Muhammad Rahimxon (1806-1825) hukmronligining 7-yili, ya’ni 1813-yilgacha bo’lgan voqealarni yozib ulgirgan, 1813-yildan – 1825 yilgacha bo’lgan voqealar Ogahiy qalamiga mansub bo’lib hijriy 1255-(milodiy 1839) yili yozib tugallangan.

Asarni yozishda Munis Abulg’ozi Bahodirxonning “Shajarayi turk”, “Shajarayi tarokima” asarlaridan foydalangan [5. – B.148.]. Munis mazkur asarida qadimgi tarixdan boshlab 1813-yilgacha bo’lgan voqealar haqida ma’lumot bergan. U ayniqsa, Abulg’oziydan (1663 – 1664) keyingi davr hodisalarini ilk bor yoritish bilan juda muhimdir. Unda qariyb 200 yilga yaqin davr tarixi borasida ma’lumotlarning yangiligi, aniqligi va dalillarning ko’pligi bilan katta qiymatga ega [6. – B.396.]. Shuningdek, asar Xiva xonligi hududida yashovchi o’zbeklar, turkmanlar, qozoq va qoraqalpoq xalqlari tarixini aks ettiradi. Asarni mukammal nusxasi Munis va Ogahiy qo’lyozmasiga mansub bo’lib, 613 betdan iborat va asar Samarqand qog’oziga, qora siyoh bilan nastaliq xatida yozilgan.

“Firdavs ul iqbol”ning mazkur nusxasi Rossiya Fanlar Akademiyasining, Sankt-Peterburg bo’limida KP-938 raqami bilan saqlanmoqda, uni rus sharqshunosi A.Kun 1874-yilda mazkur kutubxonaga topshirgan.

Asar keyinchalik, 1856-yilda mulla Nurniyoz ibn mulla Muhammadniyoz tomonidan ko’chirilgan. Asarga 1879-yilda Muhammad Rizo Oxund ibn Muhammad Karim devon tartib bergan.

“Firdavsu-l-iqbol” debocha va muqaddimadan tashqari besh bobdan tarkib topgan. Bu haqda Munis quyidagicha ma’lumot beradi: “Bu muxtasar shuru’ig’a xomai ibtido suruldi, chun bahori iqboli sohibqironiy bila firdavsdek ziynat topib erdi, binoan alayh “Firdavsu-l-iqbol”g’a mavsum bo’ldi. Bir muqaddima, besh bob, bir xotimag’a taqsim topti. Muqaddima ba’zi maxsusoti a’loxoqoniy zikridakim, osori iqboli sohibqironiy erdi. Avvalg’i bob hazrat Odam alayhissalom ijodidin (yaratilishidan) Nuh alayhissalom avlodig’acha mazkur bo’lur. Ikkinchi bob Yofas alayhissalomdin qo’ng’irot sho’basig’acha mo’g’ul podshohlarining zikrida. Uchunchi bob Qurlos avlodidin podshohliq marotibig’a yetganlar zikridakim, so’ngi Abulg’ozixon ibn Yodgorxondur. To’rtunchi bob hazrat podshohi sohibqironning ajdodi kirom va aboi zu-l-ehtiromining zikrida. Beshinchi bob hazrat podshohi sohibqironning valodati humoyunidin bu risolai saodatmaqola itmomig’acha har vaqoe’kim osori sohibqironiydin vuqu’ topmish va vuqu’ topg’usidur zikr qililur. Xotima avliyoyi izom va ulamoi kirom va umaroi zu-l-ehtirom va sohibdavlat beklar va zakiytab’ shoirlar va donishmand fozillar va falotunfitrat hunarmandlar va ba’zi umuri g’aribakim, hazrat podshohning ayyomi maymanatanjomida vuqu’ topibdur, alar hikoyotig’a maxsusdur” [7].

Munis bu asarini Eltuzarxon davrida boshlagan, 1806-yilda u o’z asarini Sherg’ozixon davriga yetkazganda, Buxoro xoni amir Haydar bilan bo’lgan urushda Eltuzarxon xalok bo’ladi, undan keyin u Muhammad Rahim I davrida bu asarni davom qildiradi. U bu davrning 7 yillik tarixini yozib tugatganidan keyin, bu ishni to’xtatib, 1819-yilda u mashhur tarixchi Mirxondning “Ravzat-us-safo” (“Safo bog’i”) asarini o’zbek tiliga tarjima qilishga kirishadi. Bu asarni ham birinchi bo’limini tarjima qilib, ikkinchi bo’limi ustida ishlay boshlaydi, lekin 1829-yilgi Olloqulixonning harbiy yurishi vaqtida vabo kasalligiga chalinib, Ahal-Taka vohasida 51 yoshidan dunyodan o’tgan [8. – B.195.]. Jasadi Xivaga keltirilib, Eski Qiyot qishlog’idagi Mavlonbobo qabristonida maxsus barpo etilgan maqbaraga dafn qilingan.

O’z davrida Munis turkman shoiri Zeliliy (1800 – 1853) (Oloqulixon davrida zindonga tashlangan) va qozoqlarning Kichik juzi oqini (baxshi shoiri) Mahambet (1800 – 1846) (Olloqulixon tomonidan saroyda qabul qilingan, lekin qarashlari to’g’ri kelmagani uchun Xiva xonligidan chiqib ketgan) bilan ham fikr bo’lgan, ularning yuragi qo’ridan otilib chiqayotgan har bir nido yoki ishqiy she’rlarida vatanga va o’z xalqiga muhabbat hissi, o’zi yashagan zamonaga nisbatan norozilik fikrlari olg’a suriladi: – haqsizlik, zulmga qarshi norozilik, adolat, xalqqa muhabbat, saxiylik, vafo, ma’rifatparvarlik, ilm-fanga homiylik, jaholatga qarshi kurash, insoniy fazilatlar ulug’langan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ахмедов Б. Ўзбекистон тарихи манбалари. – Т: Ўқитувчи, 2001.
2. Абдуллаев В. А. Ўзбек адабиёти тарихи. – Т.: Ўқитувчи, 1967.
3. Sariyev Sharafjon. Adabiyot. – Т.: Sharq, 2016.
4. Orzibekov R. O'zbek adabiyot tarixi. – Т.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi, 2006.
5. Jumaxo'ja N., Adizova I. O'zbek adabiyoti tarixi. – Т.: Noshir, 2019.
6. Internet saytlari: WWW.Ziyonet.uz. Saviya.uz.